



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO’MINOVICH**
O‘zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq
intizomini ta’minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O’G’LI**
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to’qnashuvining
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O’G’LI**
Sun’iy intellektni ta’lim olish jarayoniga tatbiq
etishning ayrim jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**
Национальные правовые аспекты реализации
функций государства при создании и развитии
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**
Practices of the advertisement legislation of the
Republic of Uzbekistan

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

141 RASHIDOV BEXZOD NURBOEVICH

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./QUPQ3549>
UDC: 342.733(045)(575.1)

SUN'IY INTELEKTNI TA'LIM Olish JARAYONIGA TATBIQ ETISHNING AYRIM JIHATLARI

Bokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Konstitutsiyaviy huquq kafedrası katta o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-4183-4760
e-mail: jahongirlawyer1@gmail.com

Annotatsiya. Insoniyat o'z taraqqiyotida ulkan o'sishga, zamonaviy yashash sharoitiga, raqamli texnologiyalarning aql bovar qilmas imkoniyatlariga erishmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda butun dunyoda keng ko'lamda ommalashayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatning deyarli barcha sohasida qo'llanib, insonlar uchun ko'plab qulayliklarni yaratmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ta'lim sohasi sun'iy intellekt texnologiyalari eng ko'p foydalanilayotgan sohalardan biri bo'lib qolmoqda. Bunday texnologiyalar insonlarning huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashishi bilan birga ayrim hal etilishi lozim bo'lgan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim jarayonlarida foydalanish huquqiy tartibga solinmaganligi sababli ta'lim oluvchilarning teng huquqliligi prinsipiga daxl etmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellektdan foydalanish uchun ta'lim oluvchi unga shaxsga doir ma'lumotlarini kiritishi yoki shaxsga doir ma'lumotlaridan foydalanishga ruxsat berishi lozim. Bunday holatda shaxsning shaxsga doir ma'lumotlari daxlsizligi masalasi so'roq ostida qoladi. Ushbu maqolada ta'lim jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning huquqiy jihatlari, bunday texnologiyalardan foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlari daxlsizligi, sun'iy intellektdan foydalanishda ta'lim oluvchilarning teng huquqli ekanligi ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot natijasida ta'lim sohasidagi milliy qonunchilik hamda huquqiy amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari (EdTech), Ma'lumotlarni himoya qilishning umumiy qoidalari, algoritmik tarafdashlik, inklyuzivlik, maxfiylik, shaffoflik.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Бокиев Жахонгир Нурматжон угли,

старший преподаватель кафедры
«Конституционное право» Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. Человечество в своём развитии достигает колоссального роста, современных условий жизни, небывалых возможностей цифровых технологий. Технологии искусственного интеллекта особенно в последние годы получили широкую популярность, используются практически во всех сферах жизни общества и создают множество удобств для людей во всём мире. По статистике, именно сфера образования остаётся одной из сфер, где технологии искусственного интеллекта используются наиболее широко. Такие технологии, помогая реализовать права человека, также создают некоторые проблемы, которые необходимо решить. В частности, использование технологий искусственного интеллекта в

образовательных процессах нарушает принцип равноправия обучающихся из-за отсутствия правового регулирования. Кроме того, чтобы применять искусственный интеллект, обучающийся должен ввести свою личную информацию либо одобрить её использование. Эта ситуация ставит под сомнение конфиденциальность личной информации. В данной статье проводится научное исследование правовых последствий использования технологий искусственного интеллекта в образовательных процессах, конфиденциальности персональных данных пользователей и равных прав обучающихся при использовании искусственного интеллекта. В результате исследования разработаны предложения, направленные на совершенствование национального законодательства и правовой практики в сфере образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образовательные технологии (EdTech), Общий регламент по защите данных, алгоритмическая предвзятость, инклюзивность, конфиденциальность, прозрачность.

SOME ASPECTS OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE PROCESS OF OBTAINING EDUCATION

Bokiev Jakhongir Nurmatjon ugli,

Senior lecturer of the Department of Constitutional Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. Humanity is achieving great growth in its development, modern living conditions, and incredible possibilities of digital technologies. Especially in recent years, artificial intelligence technologies, which have become widely popular all over the world, are used in almost all spheres of society and create many conveniences for people. According to statistics, the field of education continues to be one of the areas where artificial intelligence technologies are most widely used. Such technologies, while helping to realize human rights, also create some problems that need to be solved. In particular, the use of artificial intelligence technologies in educational processes violates the principle of equal rights for learners due to a lack of legal regulation. Furthermore, in order to apply artificial intelligence, the student must either enter or approve the use of his personal information. This case calls into question the privacy of personal information. This article conducts a scientific study on the legal implications of using artificial intelligence technology in educational processes, the privacy of users personal data, and learners equal rights in the use of artificial intelligence. As a result of the research, proposals aimed at improving national legislation and legal practice in the field of education will be developed.

Keywords: artificial intelligence, educational technologies (EdTech), General Data Protection Regulation algorithmic bias, inclusiveness, confidentiality, transparency.

Kirish

Har bir davlat o'zining kelajagi bo'lgan yoshlarga, ularning ta'lim olish huquqini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Bugungi kunda ham respublikamiz ta'lim tizimida o'tkazilayotgan islohotlarning maqsadi mamlakat ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ta'limning uzluksizligini ta'minlash orqali ta'lim bilan qamrov darajasini yanada oshirish, talabalar uchun eng foydali ta'lim

usullari va metodlarini joriy etishga qaratilgan. Ta'lim olish huquqining nihoyatda dolzarb ekanligi yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ham alohida qayd etilib, "Ta'limni qo'llab-quvvatlash Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya" ekanligi e'tirof etilib, "Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Maktab ta'limini rivojlantirsak, oliy ta'lim ham, ilm ham kelajakda rivojlanadi", – deb ta'kidlangan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi ko'pgina sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashni tadqiq etishni dolzarb masalaga aylantirdi.

Darhaqiqat, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va o'zining qobiliyatini to'laqonli namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratish dolzarb masala hisoblanadi, chunki yoshlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotining kafolati hisoblanadi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ko'lami barcha sohalarida tez sur'atda o'sib bormoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim sohasida ham foydalanish masalalari so'ngi kunlarda keng muhokama mavzularidan biriga aylanib ulgurdi. Sun'iy intellektidan ta'lim jarayonlarida foydalanish bir qator ijobiy o'zgarishlar bilan birga ayrim muammolarni ham yuzaga keltirishini inkor etib bo'lmaydi. Bu esa quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi:

1) sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash natijasida shaxsning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilishni tahlil etish;

2) sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash ta'lim oluvchilar o'rtasidagi notenglikni keltirib chiqarishi ehtimolining ilmiy-huquqiy tahlili;

3) ta'lim muassasalariga sun'iy intellektni joriy etishda hamda ushbu vositalarning ta'lim jarayonida O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga putur yetkazmasligini hamda tegishli axloq normalari va milliy qadriyatlarimizga to'liq mos kelishini ta'minlash va boshqalar.


Material va metodlar

Ta'lim muassasalariga sun'iy intellektni joriy etish qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, ular ilmiy jihatdan yetarli da-

rajada tahlil qilinmaganligi, shuningdek, oliy ta'limda qo'llashdagi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va uning asnosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bilan bog'liq bir qator muammolar borligi sababli ushbu tadqiqot ishida asosan qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Bundan tashqari kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlaridan ham keng foydalanildi. Tadqiqot davomida W. Holmes, S. Anastopoulou, H. Schaumburg, M. Mavrikis, B. Williamson, R. Eynon, J. Potter, U. Sahni, R. Gupta, M. Khan, S. Ahmed, E. Moore, M. Shrivastava, A. Sharma, Z. Batmaz, R. Stone, E. Chukwu va boshqa bir qator olimlarning ilmiy ishlari tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalari

Ma'lumki, sun'iy intellekt texnologiyalari raqamlashtirish jarayonlarining natijasi hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda jamiyatning barcha sohalarini raqamlashtirishga qaratilgan bir qator huquqiy asoslar yaratildi, amaliy chora-tadbirlar ko'rildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019), "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020) farmonlari hamda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021) qarori qabul qilinib, ta'lim tizimini raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni kengaytirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilandi. Ta'kidlash lozimki, sun'iy intellekt texnologiyalari va ulardan foydalanish bevosita internet jahon axborot tarmog'i bilan bog'liq. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yanvar oyi holatiga Internet foydalanuvchilari 5,35 mln ming nafarga yetganligini ko'rishimiz mumkin. 2005-yildan boshlab bu ko'rsatkich yildan yilga oshib kelayotganligini quyidagi grafika isbotlaydi [24].



Rasm. Dunyo bo'yicha Internet va ijtimoiy media foydaluvchilari soni

Tadqiqot natijalari tahlili

Mazkur mavzuda olimlar tomonidan bir-birini qo'llaydigan va inkor qiladigan turli fikrlar bildirilgan. Xususan, U. Holms va boshqa bir guruh olimlarning fikricha sun'iy intellekt (AI) iqtisodiyot tarmoqlari bo'ylab mahsulot va xizmatlarni tobora ko'proq shakllantirar ekan, mazkur texnologiyalar moslashuvchan va moslashtirilgan ta'limni keng miqyosda taqdim etish imkoniyatini beradi [2]. Biroq boshqa bir guruh olimlarning ogohlantirishicha, "ta'limda sun'iy intellektidan foydalanish birinchi navbatda barcha ta'lim oluvchilar uchun foyda keltirishi kerak" [3]. Demografiyadan qat'i nazar, inklyuziv raqamli ta'lim imkoniyatlariga bo'lgan huquqlarni qo'llab-quvvatlash uchun siyosiy aralashuvlar sun'iy intellekt tizimlarini loyihalashda kamsitishdan holi bo'lishi, shuningdek, shaffoflik va tenglik tamoyillarini joriy etishi kerak [4].

Fikrimizcha, yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar o'rinli bo'lib, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ta'lim oluvchilar o'rtasida tenglik tamoyiliga qat'iy rioya

qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Zero, mazkur jarayonlarda tenglik prinsipiga amal qilinmasligi inklyuziv ta'limni joriy etishga to'sqinlik qiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan masala bir qarashda unchalik muhim muammo sifatida ko'rilmaligi mumkin. Biroq sun'iy intellekt joriy etilganidan so'ng amalga oshirilgan dastlabki tadqiqotlar sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalaridan foydalanishda mavjud bo'lgan tengsizliklar mavjudligini ko'rsatadi.

B. Uilliamson, R. Eynon va J. Potterlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda qayd etilishicha, Avstraliya maktablari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli past jamoalardagi ta'lim oluvchilar tomonidan ta'lim ilovalari va virtual yordamchilardan nisbatan yaxshiroq ta'minlangan tengdoshlariga qaraganda kam darajada foydalanilgan. Bunga xarajatlarning nomutanosibli va tegishli qurilmalarni sotib olish imkoniyati pastligi sabab bo'lgan [5].

Hindistonning qishloq joylarida qo'shimcha fanlarni o'qitish uchun moslashtirilgan

chatbotlarning sinovlari esa faqat ingliz tilini yaxshi biladigan erkak talabalar uchun foyda keltirganligi, bu esa savodxonlik bo'yicha tafovutlarni hamda gender notengliklarni yuzaga keltirishini isbotladi [6].

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiya va boshqa shu kabi xalqaro huquqiy hujjatlar a'zo davlatlarni axborot tizimlariga erishishda inklyuzivlikni va texnologiyalar orqali teng huquqli ta'lim sharoitlarini ta'minlashni talab qiladi [7].

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan Sun'iy intellekt to'g'risidagi akt kabi hujjatlar ham sun'iy intellektdan foydalanishga teng huquqlilik prinsipiga putur yetkazadigan xavfli, noaniq yoki adolatsizliklarga qarshi himoya choralarini belgilaydi [8].

Yuqorida keltirib o'tilgan qarashlarni tahlil qilgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, ta'lim jarayonida, xususan, oliy ta'limda sun'iy intellektning xavfsiz, axloqiy qo'llanishini targ'ib qilish uchun manfaatdor tomonlar, shu jumladan, ta'lim siyosatini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat idoralari:

- raqamli tafovutlarni bartaraf etish uchun arzon uskunalar va internetga ega bo'la olish tashabbuslarini moliyalashtirishi;

- ta'lim muassasalariga sun'iy intellektni joriy etishda hamda ushbu vositalarning ta'lim jarayonida O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga putur yetkazmasligini hamda axloq qoidalari va milliy qadriyatlarimizga mos kelishini ta'minlashda ko'mak berishlari;

- sun'iy intellekt algoritmik ta'lim mazmuni yoki qarorlar orqali kamsitishni taqiqlovchi qonun-qoidalarni qabul qilishi;

- sun'iy intellekt orqali o'qitish jarayonlari ustidan davriy tahlilni amalga oshirib borishlari lozim.

Sun'iy intellektni ta'lim olish jarayoniga tatbiq etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan navbatdagi huquqiy masalalardan biri bu talabalarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi masalasidir.

S. Gamaj va boshqa bir guruh olimlarning fikricha, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim innovatsiyalari shaxsga yo'naltirilgan va moslashtirilgan ta'lim jarayonlarini taqdim etishi barobarida, ma'lumotlarga bog'liq bo'lgan ushbu tizimlar ta'lim oluvchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi bilan bog'liq dolzarb muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoli yuqoridir [9].

Axborot tizimlariga kirishda himoya choralarini qo'llash orqali muvozanatlash siyosati faqat kerakli ma'lumotlarni to'plash va saqlashni ta'minlashga, monitoringni batafsil tavsiflovchi va rozilik jarayonlarining shaffofligini ta'minlovchi instrumentlarni joriy etishga va davlat organlariga muammoli platformalarni tekshirish va tahlil qilishga imkoniyat yaratadi [10].

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan fikrlar o'rinli bo'lib, axborot texnologiyalari sohasidagi davlat siyosatini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari ta'lim tashkilotlari hamda tegishli manfaatdor vazirliklar bilan hamkorlikda faoliyat olib borgan holda, sun'iy intellekt texnologiyalari orqali tashkil etilgan ta'lim jarayonlarida talabalarning shaxsiy ma'lumotlari to'planishi holatini doimiy kuzatib borishlari hamda bunday ma'lumotlar to'planishining asosli ekanligini (tizim faoliyati uchun eng zarur bo'lgan ma'lumotlarga to'planishi va ushbu chegaradan chetga chiqilmasligini) ta'minlashlari shart. Boshqacha qilib aytganda, bugungidek axborot texnologiyalari rivojlangan dunyoda shaxsiy ma'lumotlar to'planishi masalasiga davlat xavfsizligi masalasiga yondashilgani kabi munosabatda bo'lish va bu orqali kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tashqi va ichki xavf-xatarlarning oldini olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hofmannning fikricha, maxfiylikni buzish xavfidan himoya qilish (ayniqsa, kam ta'minlangan jamoalar orasida) uchun tegishli qoidalar belgilanishi hamda ular ta'lim texnologiyalarining davlat va xususiy sektorlari-

da adolatli maxfiylikni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak [11].

Bizningcha, shuni ham unutmaslik kerakki, sun'iy intellekt texnologiyalari haqiqatan ham keng miqyosda va puxta o'ylangan holda ta'lim sifatini oshirish uchun katta salohiyatga ega.

Z. Batmaz, R. Ston va E. Chukvularning qayd etishicha, talabalarning individual ehtiyojlarini tahlil qilishga asoslangan shaxsiylashtirilgan baholash va tuzatishlar kiritish kabi ta'lim instrumentlari talabalardagi turli xil kuchli va kuchsiz tomonlarni farqlash orqali yanada moslashuvchan ta'lim jarayonlarini tashkil etishga imkon beradi [12].

Ayrim olimlarning fikricha, erta ogohlantirish tizimlari bilan jihozlangan raqamli ta'lim texnologiyalari ma'lumotlarni tahlil etish orqali har bir ta'lim oluvchining progresslarini baholashi va bu orqali xavf ostida bo'lgan talabalarni aniqlab, o'z vaqtida zarur choralarni ko'rish imkoniyatini beradi [13].

Zavaki-Rixter va boshqa bir guruh olimlarning fikricha, virtual ko'rsatmalar berish va hamkorlikdagi ta'lim muhiti bilimlarni shakllantirish uchun muhim bo'lgan imkoniyatni – tengdoshlar bilan keng muloqot qilish imkoniyatini beradi [14].

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shimcha sifatida an'anaviy ta'lim muhitidan farqli o'laroq, sun'iy intellekt texnologiyalari orqali tashkil etiladigan ta'lim jarayonlarida faqatgina bir guruh talabalariga e'tibor markazida bo'lib qolmasdan, barcha talabalar uchun bir xil imkoniyat va shart-sharoitlar yaratiladi.

Roberts-Mahoney boshchiligidagi olimlar esa masalaning boshqa tarafiga urg'u berishgan. Ularning fikricha, moddiy naf olishga yoki texnologik optimizmni rag'batlantirishga qaratilgan siyosat yetarlicha natijani bermaydi va shu sababli ham, faqatgina ilmiy asoslangan siyosat yuritish orqaligina sun'iy intellekt asosida tashkil etiladigan ta'lim o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatishi mumkin [15].

Gamagening fikricha, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim siyosati va huquqiy asoslarini ishlab chiqishning barcha jarayonlarda EdTech mustaqil tadqiqot guruhlar va manfaatdor xususiy sektor vakillari bilan bevosita hamkorlik qilish ta'lim sohasidagi maqsadlarga erishishga, axloqiy me'yorlarni ta'minlashga hamda texnologik taraqqiyotni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi [9].

Shunga o'xshash mazmundagi qarashlarni ilgari surgan boshqa bir guruh olimlarning qayd etishlaricha, yuqori darajadagi sun'iy intellekt tamoyillarini adolatli va teng huquqli siyosatga yetarli darajada tatbiq etish bunday siyosatning ishlab chiqilishidan manfaatdor bo'lgan taraflarni ushbu jarayonga jalb qiladigan inklyuziv qarorlarni qabul qilishni talab etadi [16].

Sanselaning fikricha, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha uchinchi shaxslarning ishtirokini ta'minlash muhim bo'lib, bunday amaliyot vakillari o'zlarining hayotiy tajribalarini aks ettiruvchi prinsiplar va javobgarlik choralaridan iborat bo'lgan tartib-qoidalarni birgalikda shakllantirish uchun yagona va amaliyotga oson tatbiq etish mumkin bo'lgan modelni ishlab chiqish uchun imkoniyat yaratiladi [17].

Fikrimizcha, mazkur qarash o'rinli bo'lib, zero so'ngi kunlarda EdTech (ta'lim texnologiyalari) sohasiga kiritilayotgan xususiy investitsiyalar hajmi tobora ortib borishi barobarida mazkur sohada tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlash masalasi alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalaga aylanib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, o'qitish va o'rganishni yaxshilashda sun'iy intellektidan foydalanish istiqbollarga bo'lgan ishtiyoqni maxfiylik, samaradorlik va adolatning tegishli kafolatlari bilan uyg'unlashtirish, umuman olganda, sohada muvozanatli siyosat olib borishga hamda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'limni sezilarli darajada yaxshilashga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida ushbu

muhim muvozanatni ta'minlaydigan siyosatni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Umuman olganda, sun'iy intellektni ta'lim olish jarayoniga tatbiq etishning huquqiy masalalariga dunyodagi rivojlangan davlatlar tomonidan yondashuvlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ko'plab davlatlarda sun'iy intellekt ta'lim sohasiga kirib borar ekan, siyosatchilar endigina boshqaruv strategiyalarini shakllantira boshlayotganlarini ko'rishimiz mumkin. Bunda, innovatsiyalar istiqbollarini shaffoflik, javobgarlik va inklyuzivlik bo'yicha axloqiy majburiyatlar bilan muvozanatlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Jumladan, hozirda Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim texnologiyalari sohasida talabalar ma'lumotlarini to'plash, bunday ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash yoki ulardan foydalanishni tartibga soluvchi talabalar ma'lumotlari maxfiylik to'g'risidagi qonun mavjud emas [18].

Shu bilan birga, talabalar ma'lumotlarini sotishni cheklaydigan Kolorado qonunlari kabi shtat darajasidagi qattiqroq siyosat keng qamrovli federal himoya uchun modellarni taqdim etadi [19].

Yevropa Ittifoqidagi Ma'lumotlarni himoya qilishning umumiy qoidalari ham rozilik, kirish va algoritmik shaffoflikning namunaviy kafolatlarini belgilaydi [20].

Shuningdek, butun dunyo bo'ylab soha olimlari va mutaxassislar tomonidan rivojlantayotgan texnologiyalarning ma'lumotlarga katta bog'liqligini hisobga olmaydigan, eskirgan qoidalarni modernizatsiya qilishga nisbatan chaqiriqlar davom etmoqda.

Ixtiyoriy tashkiliy tavsiyalar esa asosiy va doimiy bo'lgan qonun-qoidalar ishlab chiqilguniga qadar, ta'lim muassasalari uchun sun'iy intellektga asoslangan ta'limni joriy etishda axloqiy amaliyotlarni joriy etish bo'yicha birinchi namunaviy qoidalarni tavsiya etadi. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning amaliyotchilardan iborat ayrim jamoalari pedagogik asoslanganlik va ta'lim oluvchilarning

sun'iy intellekt tizimidan foydalanishda jarayonni o'z ehtiyojlariga moslashtirish uchun imkoniyat yaratishga ustuvor ahamiyat beradigan tamoyillarni taklif qilishadi [21].

Shu kabi IEEE standartlar assotsiatsiyasi ham algoritmik tarafkashlik, maxfiylik va talabalarga salbiy ta'sir qilishning oldini olish bo'yicha asosli tavsiyalar beradi [22].

Bizningcha, yuqorida qayd etib o'tilgan xalqaro standartlar va tavsiyalar sun'iy intellektga asoslangan ta'limni joriy etishning huquqiy asoslari yaratilmagan hozirgidek sharoitda sohada muayyan siljish borligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, bugungi kunda mavjud bo'lgan qonunchilikdagi bo'shliqlar, yellaricha huquqiy asoslarning mavjud emasligi sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga tatbiq etish jarayonlarini har tomonlama tartibga solishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi ehtimoli yuqori.

Shu bilan birga, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim siyosati va huquqiy asoslarini ishlab chiqishda yuqorida biz tomonimizdan tahlil qilib o'tilgan potensial xavf-xatarlar va masalalarning (ta'lim texnologiyalariga ega bo'la olishda talabalar uchun tenglikni ta'minlash, talabalarining shaxsiy ma'lumotlari to'planishida maqsadga muvofiqlik prinsipiga amal qilish, huquqiy asoslarni yaratishda barcha manfaatdor taraflar – talabalar, xususiy sektor vakillari, sun'iy intellekt sohasidagi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar ishtirokini ta'minlash) inobatga olinishi barcha talabalarga foyda keltiradigan inson huquqlari asoslarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Inklyuziv va sifatli ta'limni tashkil etish uchun sun'iy intellekt salohiyatini ro'yobga chiqarish inson huquqlari va u bilan bog'liq qadriyatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Slade va Prinsloolarning fikricha, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonlariga tatbiq etilgan taqdirda, ularning algoritmlari shaffof bo'lishi zarur [23].

Bizningcha, mazkur qarash o'rinli bo'lib, zero, bu ta'lim jarayoniga joriy etilgan sun'iy intellekt texnologiyalaridagi model xatti-harakatlarni, umuman olganda, butun jarayonni tushunishga hamda tegishli qoidalarga rioya qilinayotganligi to'g'risida huquqiy va sohaviy xulosalarga kelishga yordam beradi.

Xulosalar

Yuqorida tahlil qilingan soha olimlarining fikrlaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni ilgari surishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Oliy ta'limda sun'iy intellektning xavfsiz, axloqiy qo'llanishini targ'ib qilish uchun manfaatdor tomonlar, shu jumladan, ta'lim siyosatini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat idoralari:

- raqamli tafovutlarni bartaraf etish uchun arzon uskunalar va internetga ega bo'la olish tashabbuslarini moliyalashtirishi;

- ta'lim muassasalariga sun'iy intellektni joriy etishda hamda ushbu vositalarning ta'lim jarayonida O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga putur yetkazmasligini hamda tegishli axloq normalari va milliy qadriyatlarimizga to'liq mos kelishini ta'minlashda ko'mak berishlari;

- sun'iy intellekt algoritmik ta'lim mazmuni yoki qarorlar orqali kamsitishni taqiqlovchi qonun-qoidalarni qabul qilishi;

- sun'iy intellekt orqali o'qitish jarayonlari ustidan davriy tahlilni amalga oshirib borishlari lozim.

2. Shuningdek, o'qitish va o'rganishni yaxshilashda sun'iy intellektidan foydalanish istiqbollarga bo'lgan ishtiyoqni maxfiylik, samaradorlik va adolatning tegishli kafolatlari bilan uyg'unlashtirish, umuman olganda, sohada muvozanatli siyosat olib borishga hamda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'limni

sezilarli darajada yaxshilashga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida ushbu muhim muvozanatni ta'minlaydigan siyosatni ishlab chiqishni taqozo etadi.

3. Sun'iy intellektni ta'lim olish jarayoniga tatbiq etishning huquqiy asoslarini yaratish hamda unga oid siyosatni ishlab chiqishda barcha manfaatdor taraflar, shu jumladan, talabalar, xususiy sektor vakillari, sun'iy intellekt sohasidagi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar ishtirokini ta'minlash lozim.

4. Bugungi kunda qonunchilikdagi bo'shliqlar, yetarlicha huquqiy asoslarning mavjud emasligi sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga tatbiq etishni har tomonlama tartibga solishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirish ehtimoli yuqori. Shu bilan birga, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim siyosati va huquqiy asoslarini ishlab chiqishda yuqorida biz tomonimizdan tahlil qilib o'tilgan potensial xavf-xatarlar va masalalarning (ta'lim texnologiyalariga ega bo'la olishda talabalar uchun tenglikni ta'minlash, ularning shaxsiy ma'lumotlari to'planishida maqsadga muvofiqlik prinsipiga amal qilish, huquqiy asoslarni yaratishda barcha manfaatdor taraflar – talabalar, xususiy sektor vakillari, sun'iy intellekt sohasidagi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar ishtirokini ta'minlash) inobatga olinishi barcha talabalarga foyda keltiradigan inson huquqlari asoslarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

5. Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonlariga tatbiq etilgan taqdirda, ularning algoritmlari shaffof bo'lishi zarur. Zero, bu ta'lim jarayoniga joriy etilgan sun'iy intellekt texnologiyalaridagi model xatti-harakatlarni, umuman olganda, butun jarayonni tushunishga hamda tegishli qoidalarga rioya qilinayotganligi to'g'risida huquqiy va sohaviy xulosalarga kelishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the ceremony dedicated to the Day of Teachers and Coaches. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/3864>
2. Holmes W., Anastopoulou S., Schaumburg H., Mavrikis M. Technology-enhanced personalised learning: unpacking the evidence for equity. *Nature Machine Intelligence*, 2022, no. 4, pp. 167–175.
3. Lu Z., Honig B., Fatima K., Coleman C., Redi M., Vishwanath A., Amplayo R.K. Decolonial AI: ablat distillato. 2021.
4. Mohamed S., Png M.T., Isaac W. Decolonial AI: Decolonial theory as sociotechnical foresight in artificial intelligence. *Philosophy & Technology*, 2022, no. 35, pp. 51–68.
5. Williamson B., Eynon R., Potter J. Pandemic politics, pedagogies and practices: digital technologies and distance education during the coronavirus emergency. *Learning, Media and Technology*, 2020, no. 45, pp. 107–114.
6. Sahni U., Gupta R., Khan M.Z., Ahmed S.I., Moore E.B., Shrivastava M., Sharma A. HCI and AI for the Next Billion Users: Designing AI for Rural, Low-Literate Users. *Association for Computing Machinery*, 2022.
7. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. *Treaty Series*, 2006, p. 3.
8. European Commission Proposal for a Regulation Laying Down Harmonised Rules on Artificial Intelligence. 2022. Available at: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A52022PC0106>
9. Gamage et al. Protecting student privacy in the age of AI-driven education. *Nature Machine Intelligence*, 2020.
10. Chhaya et al. Educational Technology and Student Privacy. Berkman Klein Center Research Publ., 2022.
11. Hoffmann. Privacy and equity in AI for K-12 education. Brookings Institute Report. 2021.
12. Batmaz Z., Stone R., Chukwu E. How AI and machine learning enhancing e-learning and education industry. *Cognitive Systems Research*, 2022, pp. 42–54.
13. Ferguson et al. Examining Trends in the Diffusion and Use of AI for Education in China. *Journal of Educational Technology Society*, 2022, p. 25.
14. Zawacki-Richter et al. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 2019.
15. Roberts-Mahoney et al. Something Borrowed: Why For-Profit Educational Technology Is Built to Fail. 2022.
16. Greenwood G. Centering Equity in AI Policymaking. Brookings Institute Report, 2023.
17. Cancela A., Mogles N., Isaakidis M., Schuurmans M. Adopting Artificial Intelligence in K12 Schools Responsibly: Voices from Stakeholders. *Information and Learning Sciences*, ahead-of-print, 2022, pp. 1–25.
18. Molnar et al. Virtual Schools and Student Data Privacy. *National Education Policy Center Brief*. 2022.
19. Electronic Frontier Foundation. *State Student Privacy Laws*, 2022. Available at: <https://ssd.eff.org/en/module/state-student-privacy-laws>
20. Kilianova M. GDPR and Learning Analytics: Squaring the Circle? *Masaryk University Journal of Law and Technology*, 2022.
21. OECD. Good Practice Principles for Data Ethics in Education. *OECD Working Paper*, 2022, no. 240.
22. IEEE. Ethically Aligned Design for Classroom Educational Technologies. IEEE Standards Association. 2022.
23. Slade S., Prinsloo P. (Re)centring justice in learning analytics: Towards praxial suggestions for reeducating higher education. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 2022, pp. 1–12.
24. Number of Internet and social media users worldwide. 2024, January. Available at: <https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.